



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2021-yil. 7-son

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

O'ZBEKISTON XALQ YOZUVCHISI O'TKIR HOSHIMOV TAVALLUDINING 80 YILLIGI



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

**Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING** | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

3-bet



Davlat tilining
o'qitilishi

11-bet



Metodik tavsiya

Ta'lim tizimida
“interfaol suhbat” usuli

11-bet



Tahlil

20-bet

Poetik matnda giponimiya
hodisasi



Tadqiqotlar

26-bet

Ginekologiyada eponimik
terminlar



Литературоведение

61-bet

Основные тенденции в развитии
современной французской литературы



Свет негаснущих имен

79-bet

«Мудрец простосердечный»



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrdan
0055-raqam bilan qayta ro'yxtaga olingan.

2021-yil. 7-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rbinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.

Tелефон: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyan nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhohazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyanatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 27.07.2021da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84_{1/8}. Sharcli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturasи. 10, 11 kegl.
«GUANGZHOU TRADING COMPANY» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
«GUANGZHOU TRADING COMPANY» МЧЖ босмахонасида чоп этилди. Манзил: Тошкент ш., Учтепа т., Катта Хирмон-тепа ва Ширин кўчалари ўзрорхаси кесинмаси, 47 "A"йй. Буортма №: 78/C. Адали: 2900.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA DOLZARB MAVZU

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| Abdurahim NASIROV. Davlat tilining o'qitilishi | 3 |
| Jumanazar ABDULLAYEV. Hozirgi o'zbek tilini o'qitishdagi bir muammoli holat va uning yechimi xususida | 6 |
| Abror MURTAZAYEV. Lingvistik ekspertiza va sun'iy intellekt | 9 |

- | | |
|------------------------------------------------------------------|----|
| Nazokat JIYANOVA. Ta'lim tizimida "interfaol suhbat" usuli | 11 |
|------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Rayxon RASULOVA. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda mumtoz adabiyot qatlamlariga murojaat | 12 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------|----|
| Xumora MARDIYEVA. O'quvchilarni kreativ fikrلashga o'rgatish | 14 |
|--------------------------------------------------------------------|----|

TILSHUNOSLIK

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Gulrukha ELMURADOVA. Turizmga oid reklamalarning "konsept" tushunchasiga muvofiq tahlili | 15 |
| Ganisher JURAEV. Teaching phraseology as one of the main branches of lexicology | 17 |

- | | |
|------------------------------------------------------------|----|
| Erkin JUMAYEV. Ismiy kesim va o'zlashtirma xabar | 18 |
| Nilufar ADIZOVA. Poetik matnida giponimiyah hodisasi | 20 |

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Xamza HAITOV. "O'tkan kunlar" romanida kulgiga asoslangan dialoglarning badiiy vazifalari | 22 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------|----|
| Guljahan NAMOZOVA. Badiiy asar semantikasida maqolning o'rni | 24 |
|--------------------------------------------------------------------|----|

TADQIQOTLAR

- | | |
|---------------------------------------------------------------|----|
| Manzura NEGMADJONOVA. Ginekologiyada eponimik terminlar | 26 |
|---------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Oybek GADAYEV. Payariq tumanidagi ayrim toponimlarning leksik-semantik tadqiqi | 28 |
|--------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Solijon AZIZOV. Filologik oly ta'limga blended ta'limga muhiti: zamonaviy strategiya, yondashuv va texnologiya | 29 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Surayyo ZIYOTOVA. "Mehrobdan chayon" asarida qo'llanilgan maishiy leksika tadqiqi | 31 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|---------------------------------------------------------|----|
| Hulkar ALIQUOVA. Turkiy xalqlarda "yor-yor" janri | 33 |
|---------------------------------------------------------|----|

KICHIK TADQIQOTLAR

- | | |
|----------------------------------------------------------------|----|
| Keldiyor DAVLATOV. "Loyihalar uslubi" va uning ahamiyati | 35 |
|----------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Nilufar OYMATOVA, Mohinabonu YUNUSOVA. Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda fanlararo integratsiya | 36 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| SABOXAT RAVSHANOVA. Alisher Navoiy asarlarida "vafo" tushunchasining g'oyaviy, badiiy ifodasi | 37 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Orzuboy YULCHURAYEV. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarini maktabda o'rgatish usullari | 38 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek folklorida "hayot daraxti" haqidagi e'tiqodi qarashlar | 40 |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shahnoza NURMATOVA. O'zbek va xitoy xalq maqollari: ma'nodagi o'xshashlik va mushtaraklik | 41 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------|----|
| Azada SOATOVA. Dilshod Rajab she'riyatining badiiy-estetik xususiyatlari | 43 |
|--------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kunduz KHAZRATOVA, Shavkat DJURAEV. Covid-19 and higher education: first-year students' expectations toward distance learning | 44 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|----------------------------------------------------------------------|----|
| Xurshida NISHONOVA. Adabiyot darslarida baholashning ahamiyati | 47 |
|----------------------------------------------------------------------|----|

МЕТОДИКА. ОПЫТ

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Эльвина ВЕЛИШАЕВА. Изучение спряжения глаголов на материале лексической темы
«Студенческая жизнь» | 49 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Конисбай ЮСУПОВ. Изучение творчества Чингиза Айтматова в академических лицеях | 52 |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Светлана ИМ. Морфонологические явления – отличительная черта фузионных языков | 54 |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Нилуфархон ЮЛДАШЕВА. К интерпретации термина «русскоязычная литература в Узбекистане» | 55 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|----|

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------|----|
| Беккенбаэр РЕЙМОВ. Один взгляд на культуроносную функцию фразеологизмов | 57 |
|-------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Лола СУЛТАНОВА. Об истории и развитии медицинской терминологии в китайском языке | 59 |
|----------------------------------------------------------------------------------------|----|

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Юлия МАТЕНОВА. Основные тенденции в развитии современной французской литературы | 61 |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Жасур ЗИЯМУХАМЕДОВ. Художественный анализ новеллы Ну Сунлина «Три рассказа о волках» | 63 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------|----|
| Юлия ИСАЕВА. Диалог «старого» и «нового» в хронике Н.С.Лескова «Соборяне» | 66 |
|---------------------------------------------------------------------------------|----|

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Нафиса НЕМАТЖОНОВА. Исследование проблемы концепции человека в современной философии | 69 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Бахтиёр ДАНИЯРОВ. Принципы и приемы оригинальной методики обучения русскому языку взрослых | 70 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Фатима ХАКИМОВА, Зухра ХАКИМОВА. О некоторых активных формах работы с антонимами при обучении русскому языку в школах с узбекским и другими языками обучения | 72 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ

- | | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Рануша АТАЕВА. Презентация как основной и продуктивный метод работы при онлайн-обучении | 75 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|----|

СВЕТ НЕГАСУЩИХ ИМЕН

- | | |
|------------------------------------------------------------------------|----|
| Гульчехра ЧУЛЛИЕВА. Тон – неотъемлемая единица речевого процесса | 77 |
|------------------------------------------------------------------------|----|

- | | |
|--------------------------------------------------------|----|
| Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. «Мудрец простосердечный» | 79 |
|--------------------------------------------------------|----|

O'ZBEK FOLKLORIDA "HAYOT DARAXTI" HAQIDAGI E'TIQODIY QARASHLAR

Qadimgi insonning daraxtlarni o'zi bilan qondosh, ruhan yaqin deb o'yashi, insonning ruhi tug'ilganida ham, o'lganidan keyin ham daraxtda bo'ladi, deya tushunishi daraxt va o'simliklar olami bilan bog'liq e'tiqodning shaklanishiga olib kelgan. Shu e'tiqodning izlari tug'ilish hamda o'lim yuz berishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlarda sezilarli darajada saqlanib qolgan. Binobarin, bola tug'ilganda, uni qora tol, tut yoki boshqa mevali daraxtlardan tayyorlangan beshikda yotqizish, shuningdek, inson vafot etganda uni qora toldan yasalgan yog'och tobutga solib, dafn qilish uchun ko'tarib ketish, tobut oldida daraxt tanasidan hassa tutib turish, mayit qabrga qo'yilib, ustidan tuproq tortilgach, hassakashlarning o'z hassalarini qabr boshiga yoki atrofiga suqib qaytishi odatlarida daraxt bilan bog'liq e'tiqod yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hassakashlarning hassasi ramziy ma'noda tayyorlanadi. Ya'ni marhum uvali-juvali kishi bo'lsa, hassa uchun mevali yoki qora tol daraxtidan novda olinadi. Agar marhum hayotdan befarzand o'tgan bo'lsa, hassa terak yoki boshqa mevasiz daraxtdan tayyorlanadi.

Marhum qabrga qo'yilib ko'milgach, hassalarni qabr boshiga (ba'zan atrofiga) suqib ekish odati asosida ham ma'lum mifologik tasavvur-tushunchalar yotadi. Go'yo shunday qilinsa, marhum ruhi shu hassalardan biriga ko'chib, qayta tiriladi deya tasavvur qilinadi. Shu o'rinda qadimgi insonlarning "hayot daraxti", "umr daraxti" haqidagi mifologik qarashlari yodga tushadi.

Hassada hayot mavjudligi g'oyasi xalq epik asarlari da, ayniqsa, afsonalarda yerga suqilgan hassanining qayta unib daraxtga aylanishi motivi shaklida saqlanib qolgan. Jumladan, bu an'anaviy motivga Bahouddin Naqshbandiy nomi bilan bog'liq afsonalarda duch kelish mumkin. Unda aytishicha, hozirgi paytda Bahouddin Naqshbandiy ziyyaratgohida saqlanayotgan katta tut yog'ochi bir vaqtlar aziz avliyoning yerga suqib qo'yilgan hassasidan qayta unib chiqqan daraxt ekan.

Folklorshunos M.Jo'rayev "Temir qoziq yulduzi" haqidagi kosmogonik afsonalarning genezisini tekshirar ekan, ulardag'i "Osmonga qoziq qoqilishi" motivining afsonaviy hassa yoki tayoq to'g'risidagi mifologik tasavvurlarga bog'lanishini alohida ta'kidlaydi. Miflar talqiniga suyanib, "...bir uchi osmonga, ikkinchi tomoni yerga qadalib turgan bu tayoq vositasida yuqori va quiyi olamlarga o'tadi turgan yo'l-tuyruklar ochilgan emish", deb ko'rsatadi hamda fasini bajaruvchi ibtido quroli", "olam o'qi" epik ma'nolarini tashishini e'tirof etadi.

Daraxt va o'simliklardan ayrimlarining qanday kelib chiqqanligi to'g'risida yaratilgan afsonalarda odamning qarg'ishga yoki la'natga uchrab, daraxtga aylanib qolishi motivi keng tarqalgan. Bu motiv afsonalar tarkibida shunchaki, tasodifan paydo bo'limgan. Uning asosida, tabiiyki, qadimgi insonlarning kishi ruhi tug'ilganicha ham, o'lgani-

dan keyin ham daraxtda bo'ladi, deya daraxtga topinishi bilan bog'liq tasavvur-tushunchalari yotadi. Go'yo tug'ilish tufayli daraxtdan ruhi chiqib kelgan inson, o'lim tufayli yana unga qaytadi. Bunda o'lim ruhni o'z manziliga qaytaruvchi magik vosita sanaladi. Afsonalarda uning o'rnda qarg'ish xuddi shunday vazifada talqin etiladi.

Xalqimiz orasida daraxtlar bilan bog'liq turlicha irimlar bor. Masalan, Buxoro viloyati, Shofirkon tumani Savrak qishlog'i aholisi o'rtasida chorshanba kuni yuz bergan o'lim uchun hovlidagi biror mevali daraxtni chopib tashlash odati bor.¹ Aks holda o'lim ustiga o'lim bo'lib, shu xonadan dan yana bir kishining yostig'i qurishi mumkin, deya irim qilinadi. Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlarida bu irim boshqacha ko'rinishda amalga oshiriladi. Bu tumanlarning aholisi chorshanbada yuz bergan o'lim uchun mevali daraxtni chopish o'rniga unga qizil yoki qora matodan bog'ich bog'lab qo'yadilar. Qizil mato ruhning jismidan ajralib chiqishini, qora mato esa motamni ramziy ifoda etadi. Bog'langan bog'ichlar o'sha daraxtning qurbanlik uchun tanlanganligini bildirib turadi.²

Mevali daraxtning vaqtidan ilgari yoki yilida ikki bor gulashi bexosiyat sanalib, uning gullari yulib tashlanadi. Bu hol o'limdan nishon beradi deb tushunilgan. Shuningdek, hovlida qurigan daraxt saqlanmaydi. Darrov chopib tashlanadi. Chunki u o'lim belgisini bildiradi. Yoxud keksalar o'limida hovlidagi biror daraxt kesiladi.

Tushda kesilgan yoki ildizi bilan qo'porilgan daraxtni ko'rish o'lim belgisi hisoblanadi. Daraxtga nisbatan epik munosabat, daraxtni insonning ruhdoshi (дерево – двойник человека)³ deb qarash bunday tush ta'birlari uchun asos bo'lgan.

Qadimgi insonlar o'lish va tirilish nafaqat insonga, balki osmon jismlariga, tabiatga, barcha jonzotlarga, butun borliqqa xos deb tushungan. Buning isbotini esa Quyosh va Oyning botib qayta chiqishida, fasllarning o'zgarishida, daraxtlarning qurib, yana qayta gullahida va hokazolar misolida kuzatgan.

Ko'na⁴ bog'ning kundasi, bobojonim.

Tush ta'birlarida keksa kishining o'limi qarib, qurigan daraxtning qulashi yoki chopilishi orqali ayon bo'laadi. Shuning uchun "bog'dagi eski kunda" tushunchasi hayotda oshini oshab, yoshini yashagan keksa kishining o'limi tushunchasini ramziy ifodalab kela oladi va u shu xil qo'shiqlarning asosiy obrazlaridan biri hisoblanadi.

Misr mifologiyasida o'liklar mulkinining hukmdori Osiris kanibalizmga chek qo'yanligi va odamlarga daraxt mevalarini, non iste'mol qilishni o'rgatganligi epik talqin qilinadi.⁵

Marhumni daraxtga osish orqali dafn etish udumiga asoslanib, elga tanilgan, e'tiborli kishilar o'lganida, jasadi daraxtga osib qo'yilgan.⁶ Shimoliy yoqutliklarda bu odatning hozirgacha amal qilishi haqida ma'lumot bor. Shimoliy yoqutliklarning shomon chollarni hozir ham shu udum asosida dafn etishar ekan. Bu bilan shomon cholni u tirikligida ku-

rashgan yer yuzidagi yovuz ruhlardan uzoqlatish maqsadi ko'zda tutilarkan. Bo'lmasa, ular marhum shomondan o'ch olish uchun uning tanasini misisiz qlynoglarga soladi deya tasavvur qilingan.

D.Zeleninining yozishicha, qadimgi odam ajdodlari dastlab daraxt ustida yashagan. Shuning uchun o'lganlarni yana qayta tushib kelgan manziliga jo'natish maqsadida daraxtlarga osib dafn etilgan. Shuningdek, marhumlami daraxtga osish – ularga abadiy hayot baxsh etishga oid qarash mangu hayot manbayi sifatida tasavvur etiladigan "hayot daraxti" haqidagi mifologik ishonchlar bilan tutashdir.

*Behishtdan chiqqan chinorga-ya,
Hurlar ham otin boylasin-e.
Bemahal ketgan onajonim-e,
Behishtlarga joylansin-e?*

Jannah xalq tilida behisht deb yuritiladi. U so'llim, go'zal, tarovatlari bog' ko'rinishida tasvir etiladi. Uning yaratilishida mifologik tasavvurlarning izlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Jannah, epik talqinlarga ko'ra, farishta va hurlarning makoni.

Yuqoridagi qo'shiqda chinor obrazni ham aynan jannah bilan bog'lab ifoda etilayotganligi jihatidan e'tiborni tortadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki chinor daraxtlarning ichida eng ko'p yashashi bilan insoniyatning diqqatini tortadi. Bu haqida hatto afsonalar yaratilgan. Ularda hikoya qilinishicha, Iskandar tiriklik suvini topib ichmogchi bo'ladi. Lekin shu paytda u xuddi shunday suvni ichib, boshiga og'ir ko'rguliklar tushgan kishiga duch kelib qoladi. Ko'p yashashdan charchagan halig'i kishi o'z-o'zini o'limga mahkum etib, tanasini tuproqqa topshirgan, lekin boshi tuproq uzra chiqib turardi. Uning holati va pushaymoni Iskandarga

ta'sir etib, Iskandar shashtidan qaytadi. Qo'lidagi obi hayotni yaqinida o'sib turgan chinor daraxti ostiga to'kadi. Shu-shu, chinor abadly hayotga erishadi. Chinor haqidagi shu epik motivlar motam marosimiga aloqador qo'shiqlarda ixchamflashib, chinorni jannat, ya'nii abadiy hayot masxani nomi bilan bog'lab talqin etishga olib kelgan.

Shuningdek, qo'shiqdagi "Hurlarning chinorga bog'langan otlari" satri alohida e'tiborni tortadi. Bundagi ot obrazni qadimgi turkiylar mifologiyasidagi ot totemiga aloqador qarashlarni o'zida tashiydi. Go'yo ot totem-homiy sifatida kishiga bu dunyoda ham, u dunyoda ham hamroh, ko'makchi bo'ladi deb qaraladi. Shuning uchun hurlar otlari bilan birga ekanligi qo'shiqda alohida ta'kidlanmoqda.

Xullas, qadimgi insonlarning daraxt totemi, hayot daraxti, umr daraxti bilan bog'liq mifologik qarashlari, daraxtni o'ziga homiy kuch deb anglashi, unga nisbatan magik himoya vositasi deya munosabatda bo'lishi hassanining keilib chiqishiga yetarli ta'sir ko'rsatgan. Motam marosimida hassani o'z yaqinidan judo bo'lib, ayriqliq g'amidan qaddi bukilgan azador erkaklar tutadi. Ularda, odatda, hassa obraziga alohida urg'u berilishi, hassa yakkalik, toqlik ramzida keltirilishi kuzatiladi. Xalq orasida "hassalar marhum qabriga soya bo'ladi" deb izohlanadi. Bu talqin asosida hassanining daraxtga aylanishi va shu orqali marhum ruhi qayta tilishi haqidagi ishonch yotadi.

Xulosa qilib aytganda, ibtidoi insonning odam o'lgach, uning ruhi boshqa jism ko'rinishida qayta tiliib, abadiy hayotga erishadi, ko'pincha odamzodning narigi dunyoga o'tgan ruhi daraxt yoki o'simlik, gul ko'rinishida bu olamga qaytib keladi degan qarashi, hayot daraxti haqidagi mifologik tasavvurlari motam marosimida "hassa" tutish udumining hamda yig'ilarda "hassa" poetik obrazining keilib chiqishiga tarixiy asos bo'lgan.

¹ Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995. 32-bet.

² Ushbu ma'lumot Buxoro viloyati, Shofirkon tumani Savrak qishlog'ida istiqomat qiluvchi Nazorat Salimovadan yozib olingan.

³ O'rayerva D. O'zbek motam marosimi folklori. – Toshkent: Fan, 2004. 253-bet.

⁴ Зеленин Д. Тотемы-деревья в сказаниях и обрядах европейских народов. – Москва–Ленинград, 1937. – С. 74

⁵ Фрезер Д. Золотая ветвь. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 341.

Shahnoza NURMATOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti,
MTRK Dunyo bo'y lab kanali muharriri

O'ZBEK VA XITOY XALQ MAQOLLARI: MA'NODAGI O'XSHASHLIK VA MUSHTARAKLIK

Maqollar o'z xususiyatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanaadi. Dunyodagi barcha xalqlar og'zaki ijodida maqol janriga mansub birliklarni uchratish mumkin. Ammo ulardagagi shakli xava mazmun, hayot hodisalaridan chiqariladigan hukm, xulosalar ba'zan mushtaraklik kasb etsa, ba'zan farqlar ham uchraydi.

Ikki xalq maqollari ma'nosidagi bir-biriga o'xshashlik yoki ayni shu ma'nodagi maqol ekivalentining mavjudligi o'sha xalqlar qarashlaridagi o'zaro yaqinlik, o'xshashlikni anglatadi. O'zbek xalq maqollarining aynan o'xshash

ma'nodagi variantlarini xitoy xalq maqollari misolida ko'rib chiqamiz.

Jahon adabiyyotida xitoy adabiyyoti qadimiyligi va o'ziga xosligi bilan doimo olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Dunyo adabiyyotshunosligida xitoy adabiyyoti bilan ma'lum bir milliy adabiyyotni solishtirish, qiyoslash va tegishli xulosalarga kelish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Binobarin, xitoy adabiyyoti bilan ma'lum bir milliy adabiyyotni qiyosiy tadqiq qilish asosida o'rganish bugun muhim ahamiyat kasb etadi.